




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

**“IKKILAMCHI NOMINATSIYA” TUSHUNCHASINING ILMIY
ADABIYOTLARDAGI TALQINI**

**INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “SECONDARY NOMINATION” IN
SCIENTIFIC LITERATURE**

Ramazon ORTIQOV,

Qarshi xalqaro universiteti katta o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HEBO7249

Annotation. *The problem of nomination in linguistics plays an important role in determining the naming potential of language units and their semantic development. In particular, the concept of secondary nomination is considered an important theoretical category that explains the process of expressing new concepts through existing language units. This article examines the scientific interpretations of the concept of secondary nomination in Uzbek, Russian, English, and Turkish linguistics using a comparative-analytical approach. At the same time, it analyzes the general landscape of how the phenomenon of “secondary nomination” has been interpreted in scientific literature, the approaches on which it has been analyzed, and the extent to which it has been explored.*

Key words: *nomination, metonymy, metaphor, synecdoche, functional shift, cognition, vernacular, dialect, lexical-semantic, expressiveness, secondary nomination.*

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining semantik taraqqiyotini tadqiq etish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Til doimiy rivojlanishda bo'lgan murakkab tizim sifatida yangi tushunchalar, hodisalar va ijtimoiy voqeliklarni ifodalash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ana shu jarayonda ikkilamchi nominatsiya mavjud til birliklari orqali yangi ma'nolarni nomlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur tushunchaning ilmiy adabiyotlardagi talqini va yondashuvlarini tizimli o'rganish bugungi tilshunoslik uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Birinchidan, ikkilamchi nominatsiya tilning leksik-semantik boyish jarayonini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Metafora, metonimiya, funksional va baholovchi nomlashlar orqali so'zlar yangi ma'no kasb etib, nutqiy ehtiyojlarni qondiradi. Ushbu jarayonni ilmiy asosda tadqiq etish til taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Barchamizga ma'lumki, til taraqqiyotining asosiy faktirlaridan biri bu ichki boyish xususiyatidir. Ikkilamchi nominatsiya hodisasi bu xususiyatning asosiy mexanizmlaridan hisoblanadi.

Ikkinchidan, ikkilamchi nominatsiya tushunchasi turli lingvistik maktablarda turlicha talqin qilinmoqda. Rus tilshunosligida u semantik ko'chish va nomlash nazariyasi

doirasida o'rganilgan. Ingliz tilshunosligida esa ikkilamchi nominatsiya kognitiv-metaforik model asosida izohlanib, inson tafakkurining konseptual tizimi bilan bog'lanadi. O'zbek tilshunosligida mazkur masala ko'proq ko'chma ma'no va frazeologiya doirasida yoritilgan, ammo qiyosiy tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ikkilamchi nominatsiya hodisasining o'zbek tilshunosligida yetarlicha talqin qilinmaganligini xorijiy tillar tilshunosligi bilan solishtirilganda nomoyon bo'ladi. Tilning asosiy ichki boyish mabaasi bu shevalalar hisoblanadi. Shu sababli ham o'zbek shevalari sathida ikkilamchi nominatsiya hodisasining mavjudligini va bu jarayonni tadqiq qilish muhim bir ish bo'lib qolayotganini takidlash o'rinli.

Uchinchidan, ikkilamchi nominatsiya inson tafakkuri va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi muhim lingvokognitiv hodisadir. Yangi tushunchalar ko'pincha inson tajribasida mavjud bo'lgan obrazlar va bilimlar asosida nomlanadi. Shuning uchun ikkilamchi nominatsiyani o'rganish konseptual metafora, til va tafakkur munosabati, milliy dunyoqarash masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Inson tafakkurida va rivojlanish evalutsiyasi davomida uning ijtimoiy hayoti va lisoniy fondida turli xil o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu tajriba va xulosalar demadir. Bu o'zgarishlar esa uning nutqida akslanadi. Ikkilamchi nominatsiya hodisasi va hosilalari ham shu o'zgarishlar asosida yuzga chiqadigan bir til hodisasidir.

To'rtinchidan, globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida yangi terminlar va nomlash birliklari ko'pincha ikkilamchi nominatsiya asosida shakllanmoqda. Ilmiy, publitsistik va ommaviy axborot vositalari tilida bu jarayon ayniqsa faol kechmoqda. Shu bois mazkur hodisani tadqiq etish terminologiya, tarjima nazariyasi va amaliy tilshunoslik uchun ham dolzarb hisoblanadi. Ijtimoiy hayotning rivojlanishi, yangi zamonaviy sohalarning paydo bo'lishi ham ikkilamchi nominatsiya hodisasining o'sha sohalariga kirib borishini taqazo qiladi. U sohalarda ham ikkilamchi nominatsiya hosilalari paydo bo'la boshlaydi.

Beshinchidan, ikkilamchi nominatsiya badiiy nutqda obrazlilik, ekspressivlik va estetik ta'sirchanlikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri bo'lib, adabiy matn tahlilida muhim metodologik ahamiyatga ega. Bu esa mazkur tushunchani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Badiiy adabiyotda so'z tanlash imkoniyatini ikki karra o'sishiga sababchi bo'ladigan hodisalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Ikkilamchi nominatsiya" tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini mavzusini kompleks va qiyosiy asosda tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning nazariy va amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda dolzarb ilmiy muammo sifatida baholanadi.

Agar biz tadqiqotchi sifatida o'zbek tilshunosligi va shevashunosligidagi ikkilamchi nominatsiya hodisasining voqealanishini tahlilga torta olsak, o'zora xususiyatlarini aniqlay olsak, bu hodisaning o'zbek tilining til taraqqiyotida naqadar muhim bir hodisa ekangligini isbotlagan bo'lamiz.

“Ikkilamchi nominatsiya” hodisasi bugungi kungacha turli tillarda turli xil talqinlarda uchrashi ma’lum. Ular bu hodisani faqatgina ikkilamchi nominatsiya deb emas, balki boshqacha nomlar bilan ham atab, tahlil qilishga harakat qilishgan. Bunga sabab, ular ikkilamchi nominatsiya hosilalarining voqealanish jarayoniga turli xil rakursdan yondashgan holda atagan. Bu esa aynan bitta hodisaning turli xil nom ostida tilshunos olimlarning tadqiqotlarida payod bo’lishiga sababchi bo’lgan. Xususan, ko’chma ma’no, sematik ko’chish, qayta nomlash(renominatsiya), ma’no kengayishi yoki torayishi, metaforik nominatsiya, metonomik nominatsiya, sinekdoxik nominatsiya, semantik hosila, konseptual ko’chish, figurativ nomlash kabi nomlar bilan ataladi. Lekin bu nomlarning barchasining tag zahirida borliqda mavjud bo’lgan va insonlar nutqida iste’molda bo’lgan birlamchi nomlarga tayangan holda ikkilamchi nom qo’yish hodisasi yotadi.

“Ikkilamchi nominatsiya” hodisasi turli ilmiy adabiyotlarda tahlil qilingan. Har bir manbaada bu hodisaning o’ziga xos xususiyatlari ochilgan, o’ziga xos yondoshuvlar bo’lgan.

Shu asnosda ko’plab tilshunos o’zbek olimlarini tadqiqotlarini tahlilga tortishimiz mumkin. Xossatan, N.Mahmudov o’zining ilmiy-tadqiqoti(monagisrafiya)da nominatsiya jarayoni, so’z ma’nosining shakllanishi, birlamchi va ikkilamchi ma’no munosabati keng tahlil qiladi. Muallif ikkilamchi nominatsiyani semantik ko’chish va ko’chma ma’no bilan bog’liq hodisa sifatida talqin qiladi [Mahmudov, 2006:15–28]. Shu bilan birgalikda, nominatsiyaning tafakkur bilan aloqador bir hodisa ekanligi, metafora va metanimiya hodisasi nominatsiyaga asos bo’lishi haqida ham o’z fikr va mulohazalarini bildirib o’tadi.

R.Qo’ng’irov o’zbek tilida leksik-semantik jarayonlarni tizimli ravishda yoritib, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi til hodisalariga alohida to’xtaladi va ular ikkilamchi nominatsiya mexanizmlari sifatida izohlanadi [Qo’ng’irov, 1978:45–78].

M.Mirtojiyev o’z tadqiqotida so’z ma’nosining taraqqiyoti, ma’no kengayishi va ko’chishi masalalari yoritiladi. “Ikkilamchi nominatsiya” hodisasini leksik hosila va semantik hosila doirasida tushuntiriladi [Mirtojiyev, 1992:87-104]. Ya’ni, so’zning ikkilamchi nomlanish vazifasi va ma’no tarqqiyotining boshqichlariga alohida e’tibor bergan holda “ikkilamchi nominatsiya” hodisasini tahlilga tortadi.

A.Nurmonov umumiy tilshunoslik doirasida nominatsiya hodisasi nazariyasini yoritib, ikkilamchi nominatsiyani qayta nomlash(renominatsiya) hodisasi tarzida izohlaydi [Nurmonov, 2008:112-128].

Sh.Rahmatullayev muharrirlik qilgan “O’zbek tilining izohli lug’ati”da ko’plab birliklar ko’chma ma’no belgilari bilan izohlanadi. Bu ma’nolarni esa ikkilamchi nominatsiya natijasi, hosilasi sifatida baholash mumkin.

D.Xudayberganova o’z maqolasida kognitiv tilshunoslik asosida konseptual metafora va konseptual ko’chish kabi hodisalarni tahlil qiladi. Bu jarayonlar esa ikkilamchi nomniatsiya hosisasining tafakkuri asosi sifatida talqin qilinadi.

Yuqorida keltirilgan o'zbek tilshunos olimlarning tadqiqotlari "ikkilamchi nominatsiya" hodisasini tilimizda mavjud bo'gan, keng iste'mol bosqichidagi bir til hosisasi ekanligini takidlashimizga asos bo'ladi.

Ikkilamchi nominatsiya hodisasi o'zbek tilidan boshqa xorijiy tillarda ham mavjuli hech birimizga sir emas. Bu hodisa xorijiy tilshunos olimlar tomonidan ham atroflicha o'rganilgan, tahlilga tortilgan. Ularda yondashuv milliy tadqiqotchilarimizdan biroz farq qilishi mumkin, ammo aynan shu hodisani o'z tillari doirasida tadqiq qilishga harakat qilishgan. Xususan, rus tilshunos olimlaridan biri A.A. Reformat'skiy bu terminlarni ko'pincha tayyor "birlamchi/ikkilamchi nominatsiya" nomi bilan qat'iy juftlik tarzida emas, balki nomlash (номинация) – polisemiya olib boruvchi mexanizm sifatida tushuntiradi [Реформатский, 2000: 166–168]. Ya'ni uning asarida ikkilamchi nominatsiya g'oyasi ko'chma ma'no (переносное значение), motivatsiya (мотивированность), polisemiyaning nominativ tabiati orqali ochiladi. Olim polisemiyaning oddiy "ko'p ma'nolilik" sifatida emas, balki nomlash mexanizmi sifatida izohlaydi. U o'z fikrini so'z "nom" sifatida bir narsadan boshqasiga o'tishi, demak, polisemiyaning birinchi masalasi – nominatsiya masalasi ekanligini aytish bilan tushuntirishga harakat qiladi. Qisqa qilib aytganda polisemiya hodisasi dastlab nominatsiya jarayonini boshdan kechirgandan so'ng, so'z polisematik xususiyatni o'zida akslantiradi.

U buni shunday ifodalaydi: polisemiya "narsa o'zgaradi, so'z ayni qoladi". Tadqiqodchi olim bu masalani yanada tushunarliroq va aniq bo'lishi uchun polisemiya asosiy savolni qo'yadi:

To'g'ri ma'no nima?

Ko'chma ma'no nima?

Bu savollarga javob berib, ko'chma ma'noga xos eng muhim belgini ko'rsatadi. Ko'chma ma'no har doim birlamchi to'g'ri ma'no orqali izohlanadi, "motivatsiyalangan" bo'ladi. To'g'ri ma'no esa tilning o'zidan kelib chiqiladi va izoh talab qilinmaydi. Yanada soda qilib aytadigan bo'lsak, ikkilamchi nominatsiya (sizning terminologiyangiz bilan) – motivatsiyalangan nomlash hisoblanadi, birlamchi nominatsiya esa ko'pincha borliqda mavjud dominant ma'nosi bo'ladi.

Reformat'skiy nominatsiyani "burun" so'zi misolida tushuntirib berishga harakat qiladi. Qayiqning old qismi "qayiq burni" deb ataladi, sababi u shakl va joylashuv jihatidan odam va hayvon burniga o'xshashdir. Demak, "qayiq burni" deb nomlanishi o'xshashlik asosida ma'no ko'chirish (metaforik mexanizm) hisoblanadi. Bu jarayon nutqimizda ikkilamchi nominatsiya sifatida quydagicha ishlaydi:

-birlamchi: "burun" – tana a'zosi (asosiy denotat);

-ikkilamchi: "burun" – "qayiqning old qismi" (yangi denotat, o'xshashlik asosida).

A.A. Reformat'skiy til hodisalarida ma'no ko'chish va nomlanishning turli ko'rinishlarini farqlab, "burun – qayiq burni" tipidagi holatlarni bitta so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolari sifatida talqin qiladi; bu yerda ko'chma ma'no to'g'ri ma'no orqali

motivatsiyalanadi (ya'ni izohlanadi), to'g'ri ma'no esa ko'pincha tilning o'zidan kelib chiqib izohlash ehtiyoji yo'q so'z sifatida yashaydi. Shu asosda olim polisemiyaning, avvalo, nominatsiya masalasi sifatida yoritadi: polisemiya "narsa o'zgaradi, so'z saqlanadi", ya'ni mavjud nominativ birlik yangi denotatga ko'chib, nomlashning ikkilamchi bosqichini yuzaga keltiradi.

V.G. Gak tilshunoslikda ikkilamchi nominatsiyani semantik derivatsiyaning markaziy mexanizmi sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, ikkilamchi nominatsiya yangi obyekt yoki hodisani nomlashda mutlaqo yangi til birligini yaratish bilan emas, balki til tizimida allaqachon mavjud bo'lgan nominativ vositalarni yangi nomlash funksiyasiga o'tkazish orqali yuzaga keladi. Shu bois Gak ikkilamchi nominatsiyani "mavjud nominativ birliklarning yangi vazifada ishlatilishi" deb izohlaydi [Гак, 1977:45–48].

Olim ta'kidlashicha, bunday nomlash jarayonida so'z shakli o'zgarmaydi, biroq denotat yangilanadi, ya'ni eski nom yangi obyektga belgilashga xizmat qiladi. Bu holat nominatsiyaning ikkilamchi bosqichini tashkil etadi va u, avvalo, semantik ko'chish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Gak bu jarayonni metafora va metonimiya kabi asosiy semantik mexanizmlar orqali tushuntiradi.

Gakning ta'kidlashicha, ikkilamchi nominatsiya tilning leksik boyishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u til tizimida mavjud resurslarning qayta ishlatilishiga imkon yaratadi. Shu sababli ikkilamchi nominatsiya faqat nominativ jarayon emas, balki **inson tafakkurining tasniflovchi va umumlashtiruvchi faoliyati** bilan ham uzviy bog'liqdir. Mavjud nomning yangi obyektga ko'chirilishi orqali inson atrof-muhitni anglashda o'xshashlik va aloqadorlikni aniqlaydi hamda til orqali uni mustahkamlaydi. Demak, V.G. Gak nazariyasida ikkilamchi nominatsiya - bu semantik ko'chish orqali amalga oshadigan, mavjud nominativ birliklarning yangi denotativ vazifaga ega bo'lishi jarayoni bo'lib, u metafora va metonimiya kabi mexanizmlar asosida shakllanadi va til taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

N.D. Arutyunova ikkilamchi nominatsiyani **inson tafakkuridagi konseptual modellar** bilan bog'laydi. Uningcha, bu jarayon **baholovchanlik va subyektivlikni** yuzaga chiqaradi [Арутюнова, 1999:181–186].

Yu.S. Stepanov ikkilamchi nominatsiyani **madaniy kodlar** orqali talqin qiladi. Har bir ikkilamchi nom madaniyatda mustahkamlangan **konseptga** tayangan bo'ladi [Степанов, 2004:13-18].

E.S. Kubryakova ikkilamchi nominatsiyani **konsept hosil bo'lishi** bilan bog'laydi va uni **nomlashning kognitiv mexanizmi** deb baholaydi [Кубрякова, 1981:92-97].

V.N. Teliya ikkilamchi nominatsiyani **konnotativ ma'noning** asosiy manbai deb hisoblaydi, ayniqsa frazeologiyada [Телия, 1996:112-118].

Yuqorida keltirilgan rus tadqiqotchilari "ikkilamchi nominatsiya" hodisasi va hosilalarini o'ziga xos jihatlarini tahlil ostiga olib, o'z fikrlarini turli xil misollar bilan asoslab berayotganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, **rus ilmiy adabiyotlarida**

“ikkilamchi nominatsiya” (вторичная номинация) hodisasi **til va tafakkur munosabatini ochib beruvchi markaziy nazariy mexanizm** sifatida tahlil qilingan. Qisqa qilib aytganda, bu hodisa **nomlashning ikkinchi bosqichi**, ya'ni **mavjud til birliklari asosida yangi obyekt va tushunchalarni atash jarayoni** sifatida qaraladi.

Ingliz ilmiy adabiyotlariga ham biroz to'xtalib o'tgan holda ba'zi talqinlarni keltirib o'tmoqchimiz. Ingliz tadqiqotchilari ikkilamchi nominatsiya hodisasi **nomlash natijasi emas, balki nomlashni yuzaga keltiruvchi kognitiv-semantik mexanizm** sifatida talqin qilganligini adabiyotlarni o'rganish chog'ida guvoh bo'ldik. Misol uchun G. Lakoff va M. Johnson o'z tadqiqotlarida ikkilamchi nominatsiyaning **eng asosiy talqini** kognitiv metafora nazariyasi orqali beriladi. Bu yerda mavjud nom (**birlamchi nominatsiya**) yangi konseptual sohaga ko'chiriladi va **ikkilamchi nominativ funksiya** hosil qiladi degan fikrni aytib, misollar bilan tahlilini asoslashga harakat qiladi [Lakoff, 1980:5].

Bundan tashqari ingliz tilshunosligining klassik semantika yo'nalishida John Lyons ikkilamchi nominatsiya hodisasini leksik ma'noning kengayishi (**lexical meaning expansion**) sifatida talqin qiladi [Lakoff G., Johnson M., 1980: 401-405]. Olimga ko'ra, til birliklari shaklan o'zgarmagan holda, yangi va o'zaro bog'liq ma'nolarni kasb etishi mumkin. Bunday jarayonda so'zning fonetik yoki morfologik tuzilishi saqlanib qoladi, biroq u yangi borliqdagi obyektni nomlash orqali **yangi nominativ vazifani** bajaradi. Lyons bu hodisani so'z ma'nosining derivatsiyasi bilan bog'laydi va uni polisemiyaning muhim manbalaridan biri sifatida baholaydi. Masalan, *“bosh”* so'zi dastlab inson tanasining bir qismi ma'nosini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik o'xshashlik asosida *“rahbar”* tushunchasini anglatish uchun qo'llanadi; *“etak”* so'zi ham inson tanasini yopish uchun kiyiladigan libosning bir qismi sifatida ishlatilsa, ma'lum bir bog'liklik asosida *“tog' etagi”* kabi abstraktroq makoniy tushunchani nomlash vazifasini oladi. Shu bois Lyons nazariyasida bunday holatlar **ikkilamchi nomlash (ikkilamchi nominatsiya)**, **hosila ma'no (kelib chiqqan ma'no)** yoki **majoziy kengayish (obrazli ma'no kengayishi)** sifatida qaraladi va ular tilning ichki semantik imkoniyatlari hisobiga yuzaga keladigan tabiiy jarayon deb e'tirof etiladi.

George Leech, D. A. Cruse, S. Ullmann kabi ingliz olimlari ham o'z tadqiqotlari va ilmiy adabiyotlarida ikkilamchi nominatsiya hodisasiga o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tadi.

Xulosa sifatida shuni atish mumkinki, ikkilamchi nominatsiya hodisasi o'zbek, rus va ingliz adabiyotlarida ham turli jihatlardan yondashgan holda talqin qilingan. Bu til hodisasi muloqotda bo'lib turgan va rivojlanishni davom etayotgan tillarning barchasida mavjud. Barcha tillarning o'ziga xos va umumiy xususiyatlari bo'lagani kabi ikkilamchi nominatsiyaning ham voqealanishi turli tilda o'ziga xos va o'xshash kechadi. Bu tadqiqot maqolasida ham ikkilamchi nominatsiya hodisasining bugungi kungacha ilmiy adabiyotlarda qanday tahlil qilinayotgani, qaysi til olimlari asosan bu til hodisasining qaysi

jiyatiga e'tibor bergan holatda talqin qilayotganini bitta joyda to'plash masalasi o'rta tashlangan. Bu ikkilamchi nominatsiya hodisasining dunyo tillari doirasida turli rakurslardan turib tahlil qilishimizga, bu til hodisasiga komil xulosalar bera olishimizga asos bo'lib xizmat qiladi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, o'zbek tili doirasida ikkilamchi nominatsiya hodisasiga bo'lgan munosabat adabiy til doirasida ko'proq tahlil qilingan. Adabiy tilda mavjud voqealanish tahlilga tortilgan. Til ilmi mutaxassislariga ma'lumki, o'zbek tilining o'ziga xos jihatlaridan bir bu ko'p lahjali til hisoblanadi. Biz keyingi o'rinlarda ikkilamchi nominatsiya hodisanini shu lahjalar doirasida ham mavjud ekanligini. U ham vaqt o'tishi davomida adabiy til bilan poyma-poy tarizda o'z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanayotganini tahlil ositiga tortamiz. Bu esa o'zbek adabiy tilining yanada boyishiga va tilimizning o'ziga xosligini yana bir til hodisasi mavjudligi bilan asoslashga sababchi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Til va ma'no. – T.: Fan, 2006.
2. Qo'ng'irov R. O'zbek tilining semantikasi. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1992.
4. Nurmonov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
6. Cruse D. A. Meaning in Language. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
7. Миртожиев М. О'zbek tili semantikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2002.
10. Ashirboyev S. O'zbek dialektalogiyasi. Nodirabegim. – Toshkent, 2021.
11. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 2000.
12. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. – М.: Междунар. отношения, 1977.
13. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999.
14. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004.
15. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. – М.: Наука, 1981.
16. Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: Языки русской культуры, 1996.
17. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
18. John Lyons. *Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
19. Normurodov R. O'zbek tilida ikkilamchi nominatsiya. – Toshkent. 2010
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. II. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensklopediyasi, 2006.